



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ƏDƏBIYYAT

1. Azerlit.info. (n.d.). [Məqalə]. <http://azerlit.info/?article=4282>
2. Cəfərov, S. (2007). Müasir Azərbaycan dili. I hissə: Leksika. Bakı: Şərq-Qərb.
3. Cəfərov, S. (2007). Müasir Azərbaycan dili. II hissə: Leksika. Bakı: Şərq-Qərb.
4. Dəmirçizadə, Ə. (2007). Müasir Azərbaycan dili. I hissə: Fonetika, orfoepiya, orfoqrafiya. Bakı: Şərq-Qərb.
5. Gülec, İ. (2020, December 13). Arazi ayırdılar. Fikriyat. <https://www.fikriyat.com/yazarlar/ismail-gulec/2020/12/13/arazi-ayirdilar>
6. Mahmud Kaşgarlı. (2024). Cild II, №2. Bakı
7. Tapdıqoğlu, N. (2006). Füzuli rayonu və onun toponimiyası. Bakı: [Nəşriyyat yoxdur].
8. Vurğun, S. (n.d.). Azərbaycan. Wikisource. [https://az.m.wikisource.org/wiki/Az%C9%99rbaycan_\(S%C9%99m%C9%99d_Vur%C4%9Fun\)](https://az.m.wikisource.org/wiki/Az%C9%99rbaycan_(S%C9%99m%C9%99d_Vur%C4%9Fun))

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KMCZ7208

XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZISTENSIALİZM

Davletova Shalola Bahodir qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti Toshkent, O'zbekiston*

E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

Annotatsiya. Ekzistensializm (lotincha – yashash, mavjudlik), mavjudlik falsafasi – falsafadagi yo'nalish. XX asr boshida Rossiyada, Birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada, Ikkinchi jahon urushi davrida Fransiyada, urushdan keyin boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan. Maqolada ushbu falsafa yo'nalishining mashhur yozuvchi Xorxe Luis Borxes ijodiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: mavjudlik, chalkashlik, hikoya, falsafiy mazmun, bosh qahramon, badiiy asar.

Абстракт. Экзистенциализм (лат. Экзистенциализм), философия существования – направление в философии. В России он появился в начале XX века, в Германии — после Первой мировой войны, во Франции – во время Второй мировой войны, в других странах – после войны. В статье рассматривается влияние этого философского течения на творчество известного писателя Хорхе Луиса Борхеса.

Ключевые слова: существование, смятение, история, философское содержание, главный герой, произведение искусства.

Abstract. Existentialism (Latin - living, existence), philosophy of existence - a stream in philosophy. It appeared in Russia at the beginning of the 20th century, in Germany after the First World War, in France during the Second World War, and in other countries after the war. The article discusses the influence of this philosophical direction on the work of the famous writer Jorge Luis Borges.

Keywords: existence, confusion, story, philosophical content, main character, work of art.

Xorxe Luis Borxes asarlari tushunilishi nuqtayi nazaridan eng murakkab postmodern yozuvchilardan biri sifatida tan olinadi. Ko'pgina postmodern ijod namunalari kitobxonlarga qiyinchilik tug'dirsa-da, Borxes ijodini zamondoshlari ijodiga qaraganda jumboqli va o'zgacha qilgan omil – uning falsafaga maftun



bo'lganligidir. Borxes asarlari nafaqat murakkab falsafiy mavzular va mashhur faylasuflardan keltirilgan havolalar bilan to'la, balki uning o'zi ham o'ziga xos falsafiy fikrlash uslubiga ega ijodkordir. Borxes ijodida falsafa badiiy vosita sifatida keng e'tirof etilib kelinmoqda. Bu haqida so'rashganida yozuvchining o'zi ham "Men chalkashlikni badiiy vosita sifatida ishlatuvchi oddiy odamman", deb javob qilgan edi.

Shunga qaramay, Borxes shaxsiyati (u o'zi yozuvchimi yoki faylasufmi) borasidagi muhokamalar hali ham davom etmoqda. Borxesni adabiy faylasuf sifatida ko'rib chiqish uchun muhim birinchi qadam u yashagan davrdagi g'arb intellektual va badiiy tafakkurining holatini tushunishdir. Borxes ijodi XX asrning o'rtalarida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, aynan shu davrda muhim intellektual qarashlar shakllandi, falsafa va adabiyot G'arb dunyosida to'liq to'qnashuvni boshdan kechirdi. Uilyam Barretning "Irratsional odam" [1] asariga ko'ra, bu to'qnashuvning sababi XIX asrning ekzistensialistik falsafiy oqimi va sanoat asridagi zamonaviy dunyoning ijtimoiy-madaniy muammolari hamda jahon urushlari o'rtasidagi o'zaro kesishuvdir.

Ushbu intellektual oqimlar va tarixiy kuchlar to'qnashganda, zamonaviy inson o'zini topishga intildi, borliq hamda shaxs haqidagi savollar, insonning hayoti, o'limi, erkinligi va tarixi haqidagi g'oyalar ko'paya boshladi. Natijada, uzoq vaqtdan beri akademik falsafaning ishi hisoblangan mavjudlikning tabiatiga tegishli savollar zamonaviy dunyo yaratgan sharoitlar tufayli jamoatchilikning ishiga aylandi.

Oddiy xalqning insoniyat mavjudligi borasidagi falsafiy fikrlari hamda muhokamalariga san'at vositasida oydinlik kiritish davr talabiga aylanib qoldi. Barret ta'kidlaganidek, "san'at – bu davrning umumiy orzusi, bizda o'tkir ko'ra oladigan ko'zlar bo'lganida edi, biz vaqt fiziologiyasini aniq kuzatishimiz mumkin bo'lar edi". Shunday qilib, inson mavjudligi haqidagi asosiy savollar zamon falsafasiga ham, adabiyotiga ham singib ketdi va ushbu sohalar bir xil savollarga javob berishga intila boshladi.

Borxes adabiyot sahniga chiqqanida zamonaviy yozuvchilarning ilk avlodi mavjudlikni markaziy masala darajasiga endigina ko'tarishgan edi. Jeyms Joys va Uilyam Folkner singari yozuvchilar aniqlikka erisha olmagan bo'lsalarda, adabiy asarlarida bu savolga javob berishga harakat qilayotgan edilar.

Ekzistensializm tushunchasi o'zining aniq qoidasiga ega emas. Bu tushuncha falsafaning markaziy harakatlaridan biri sifatida ishlatiladi. Stanford falsafa ensiklopediyasiga ko'ra, ekzistensializm, asosan, intellektual tarixga tegishli atamadir.

Ekzistensialistik tafakkur davomida G'arbning tarixiy, ilmiy, falsafiy va diniy mavjudlikni izohlashga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1946-yilda o'zining "Ekzistensializm – bu gumanizm" ma'ruzasida Jan-Pol Sartr ekzistensialistik nazariyaga ko'ra, odamlarning bu tushunchaga qanday yondashishlari kerakligini tushuntirdi. U "mavjudlik mohiyatdan oldin keladi – yoki bu subyekt sifatida boshlanadi". Bu fikr ancha tushunarsiz bo'lsa-da, uni



ortidagi ma'no juda oddiy bo'lib, bu ehtimol, intellektual tarixdagi eng oson ta'rifdek tuyiladi.

Borxesning fantastik asarlari ushbu urinishlarning yani odamlar haqiqatni kodlash uchun foydalanadigan nazariyalarning befoydaligini ochib berdi. U "Tlon, Uqbar, Orbis-Tertius" kabi hikoyalari orqali bu mavjudlikni asoslab bo'lmashligini ifodalaydi, "Ilmda aniqlik" sarlavhali yarim sahifali essesi orqali butun boshli mavjudlik nazariyasi sohasiga insonning kelajakdagi traektoriyasi va maqsadi borasida savol tashlaydi.

Uning ba'zi hikoyalari ratsionalizmga qarshi ekzistensialistik ko'rinsa-da, boshqalari voqelik va ongning individual tajribasini aks ettirish orqali ekzistensialistik fikr orqali ekzistensializmga ishora qiladi. Masalan, "Xarobalar girdobi" ("The Circular Ruins")da bosh qahramon boshqa bir inson tushining mahsuli bo'lib chiqadi. Ba'zi hollarda, Borxesning hikoyalari ochiq ekzistensial harakat qahramonlariga ergashadi, masalan, Doktor Yu Tsun "Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i" ("The Garden of Forking Paths") hikoyasida, u axloqiy dilemmaga yuzlashib, o'z hayotini insoniyatning eng katta manfaati deb hisoblagan narsa uchun qurbon qiladi. Ushbu hikoyalarning aksariyati butun ekzistensializm tafakkurida tan olingan qandaydir istehzoli burilishlar bilan haqiqatning alamli va achinarli holatini ochib berishga intilayotganga o'xshaydi.

Borxes asarlari tematik jihatdan ekzistensializmga juda yaqin bo'lganligiga qaramay, u ekzistensialist yozuvchi sifatida ko'p tahlilga tortilmagan. Borxesni bu yo'nalishda o'rgangan tadqiqotlar sanoqlidir. Ulardan biri Ion T. Agheana tomonidan "Borxes nasri: ekzistensializm va hayratlanish dinamikasi" [3] asari Borxesni faylasuf sifatidagi qirralarini ochib berdi. Garchi tahlilda bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi, jumladan, Agheana Borxes qahramonlariga faqatgina ekzistensial agent sifatida yondashganligi bu tahlilning tor :rada amalga oshganligini ko'rsatadi.

Agheananing urinishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsada, Borxesni ekzistensialist sifatida o'qish g'oyasini tanqidiy dunyo uchun arzirli mavzulardan biriga aylantirgan omildir. V.H.Bosartning "Borxes falsafasi: o'zlik, vaqt, metafizika" kitobi bu fikrni ikkita muhim sababga ko'ra yoqlab chiqdi: Avvalambor, falsafa professori Bossart Borxesni qiziqtirgan ba'zi falsafiy muammolarni, ekzistensialistik nuqtayi nazardan (vaqt va men kabi), hal qilish ustida bosh qotirdi va ayni savollar Borxesni boshqa faylasuflar tomonidan faylasuf sifatida jiddiy qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Ikkinchidan, Bosart Agheananing Borxesni ekzistensialist sifatida o'qishga urinishini muhokama qiladi va bu yetarli emasligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda Agheana [3] va Bosart Borxesdagi bir nechta ekzistensial mavzular (erkinlik, izzat, umidsizlik va o'zlik)ni hisobga olib, Borxesda ekzistensializm imkoniyatini ko'rib chiqadilar. Borxes ham estetika ham badiiylikka e'tibor qaratgan ekzistensial ijodkor sifatida talqin etildi.

O'quvchi yozuvchidan qanday mahsulot kutishini hisobga olgan holdam umumiy adabiy qoidalarni qo'llash, ularga o'zgartirishlar kiritish yoki tubdan qayta shakllantirish orqali Borxes badiiy asar shakli hamda mazmunini



murakkablashtirgan holda boyitdi. Bunda Borxes o'zining badiiy mahoratini novatorlik bilan, o'zigacha bo'lgan badiiy til qoidalari chegarasini buzgan holda namoyish etdi.

U nafaqat ijodkorlarning dunyoni estetik tartibga solish imkoniyatlarini ochib berdi, balki o'quvchini ham badiiy matn orqali dunyoni tushunishga bo'lgan intilishlari olamiga yetakladi. Uning badiiy to'qimalari, jadal voqealar hamda beqarorliklar o'quvchini estetik faol bo'lishga undaydi chunki hikoyadagi olam imkoniyatlari qahramonlarni turli yo'nalishlarga harakatlantiradi. Bu erkinlik o'quvchi nuqtayi nazaridan kashf etilgan hikoya olamida uning o'zi yashayotgan dunyoni anglashdagi rolini ham o'z ichiga oladi.

“Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i” hikoyasi Borxesning aynan shu andozadagi hikoyalariga yaqqol misol bo'la oladigan ekzistensialistik-estetik kuchga ega hikoyadir. Chunki u badiiy erkinlik o'quvchilar imkoniyatlarini kengaytirish uchun yo'naltirilishi kerakligini ko'rsatadi. O'quvchi “Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i” asarida keltirilgan murakkabliklar hamda imkoniyatlar bilan kurashar ekan, o'zining hikoyaning chalkashliklaridan ma'no chiqarishdagi rolining muhimligi anglashi kerak. Shuning uchun ham, “Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i” hikoyasi Sartrning badiiy asar ijodkor hamda o'quvchi o'rtasidagi aloqa hamda erkinlik haqidagi tavsifiga to'la mos keladi.

Xulosa. Xorxe Luis Borxes adabiyot va falsafa o'rtasidagi ko'prikn mustahkamlagan ijodkorlardan biridir. U adabiyotning imkoniyatlarini falsafiy qarashlari bilan boyitdi va kitobxonga yangicha usuldagi, erkin fikrlash va mushohada qilish imkoniyatini yaratib berdi.

Adabiyot:

1. Irrational man: A study in Existential Philosophy. William Barret. United States, 1958.
2. Philosophy in Borges: Self, Time, Metaphysics. W.H. Bossart, 2003.
3. The Prose of Borges: Existentialism and the Dynamics of Surprise. Ion T. Agheana, 1984.
4. The Sound and the Fury. William Faulkner. United States, 1929.
5. Ulysses. James Joyce. Paris, 1922.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/YDXC4569

A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN *KUTADGU BILIG*.

Ismailova Gulnoza Odiljon qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Gulnozaodilovna97@mail.ru

ORCID ID 0009-0003-2997-4589

Annotation: This article explores the religious lexicon found in *Qutadg'u Bilig*, an 11th-century Turkic literary work written during the flourishing period of Islamic civilization in Central Asia. The study highlights the influence of Islamic culture on the vocabulary of the



<i>И «ИСТОРИИ ВЧЕРАШНЕГО ДНЯ» Л.Н. ТОЛСТОГО</i>	
<i>To'raqulova Nilufar Amirqulovna. DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</i>	498
<i>Türkan Mahmudzada. MEHMET AKIF ƏRSOY MILLI KIMLIK MƏSƏLƏSİ</i>	501
<i>Xamidullayeva Fotima Adxam qizi. XORIJIY TILNI O'RGANISHDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	506
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi. DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI (TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)</i>	513
<i>Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı. ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGE ÜZERINE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAIJAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ</i>	519
<i>Xatirə Bayramova. QARABAĞIN FÜZULİ RAYONUNUN HIDRONİMLƏRİNİN LEKSIK-SEMANTİK XÜSUSİYYƏTLƏRİ</i>	527
<i>Davletova Shalola Bahodir qizi. XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZISTENSIALİZM</i>	536
<i>Ismailova Gulnoza Odiljon qizi. A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN KUTADGU BILIG</i>	539
<i>Ro'ziyeva Aziza Bobirovna, Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi. 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'YI INTELLEKT ORQALI MATN YOZISHNI O'RGATISH</i>	548
<i>Валида Шухалиева Надир кызы. НОВЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</i>	553
<i>Omonova Qunduz Alisher qizi. HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI</i>	559
<i>Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi. IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOYIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV</i>	562
VI SHU'BA. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
<i>Tursunoy Yusupova Axmedovna. O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI</i>	576
<i>Shodmonova Munira Burxonovna. TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI</i>	579
<i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna. RAQAMLI TEXNOKRATLASHUV SHAROITIDA QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI</i>	587
<i>Iskandarova Gulbahor Turabayevna. XORIJLIK LARNING O'ZBEK TILINI O'RGANISHIDA SO'Z MA'NOLARINING O'ZLASHTIRISHI</i>	592

